

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KLASTER YONDASHUV TIZIMINING
INTEGRATSION O'QITISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O'RN**

Abdushukurova Muxlisa Foziljon-qizi

Guliston davlat pedagogika Instituti talabasi

To'xtayeva Aziza Davron qizi

Guliston davlat pedagogika Instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15021787>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv tizimining birlashtirilgan o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish samaradorligini oshirish to'g'risida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, boshlang'ich, klaster, fan, integratsiya, o'qitish, mexanizm, takomillashtirish.

Аннотация. В данной статье представлена информация о повышении эффективности совершенствования интегрированных механизмов обучения системы кластерного подхода в начальном образовании.

Ключевые слова: образование, начальное, кластер, предмет, интеграция, обучение, механизм, оптимизация.

Abstract. This article provides information on increasing the effectiveness of improving the integrated teaching mechanisms of the cluster approach system in primary education.

Key words: education, primary, cluster, science, integration, teaching, mechanism, improvement.

Yangi O'zbekiston rivojiga katta hissa qo'shayotgan va uning tub o'zagi hisoblangan ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida ayni damda boshlang'ich ta'limga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Yurtimizda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans davrida boshlang'ich ta'limda sifat samaradorligiga erishish va bunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga tayanish dolzarb vazifalar sirasiga qo'shildi.

O'zbekistonda boshlang'ich ta'limni yanada takomillashtirish davri kechmoqda. Ushbu jarayonda faqatgina boshlang'ich sinfdan dars berib kelayotgan o'qituvchilargina emas, balki bo'lajak pedagog-o'qituvchilar ham juda katta, muhim rol o'ynaydi. Ularda ham kasbiy qiyofani to'la shakllantirish shart.

Shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, xorijlik pedagog olimi N.V.Kuzmina boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy qiyofasi qay darajada bo'lishi kerakligini o'zining quyidagi yondashuvlari asosida ko'rsatib o'tgan:

- 1) kasbiy bilimga ega bo'lish;
- 2) loyihachi bo'lish;
- 3) konstruktiv bo'lish;
- 4) maslahatchi bo'lish;
- 5) tashkilotchi bo'lish.

Mazkur komponentlarning ma'nosi quyidagicha: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiy-nazariy bilimni egallashi, mustaqil fikrga ega bo'lishi va mudom o'zi ustida ishlab borishi kerak; uning loyihachiligi har bir darsni o'ziga xos tarzda o'tkazishi bilan belgilanadi; konstruktivligi o'quvchilar bilan til topisha olishi va bolaparvarligi bilan namoyon bo'ladi; maslahatchiligi ta'lim oluvchilar va ularning manfaatdor shaxslari bilan kirishimlidir; tashkilotchiligi esa ongi pedagogik texnologiyalarni amaliyotda qo'llay olishi bilan belgilanadi.

Umumiy olb qaraydigan bo'lsak, har bir pedagog-o'qituvchining kasbiga xos vazifa va burchlari mavjud, biroq aynan boshlang'ich sinf o'qituvchilar qiyofasida bular namoyon bo'lib turishi kerak:

- bolaparvarlik;
- o'z kasbiga bo'lgan muhabbat;
- pedagogik faollik;
- o'zi ustida doimiy ishlashi.

Yuqoridagi pedagogik yondashuvlar asosida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya olayotgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'qitilsa, yanada samarali

bo'ladi. Shu jihatdan xalqaro pedagogik tajribalarda qabul qilingan quyidagi konseptual yo'nalishlarga e'tibor berish lozim:

- a) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga kasbiy, psixologik va pedagogik bilim berish;
- b) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik ko'nikma bilan qurollantirish;
- v) boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zamonaviy texnologik imkoniyatlaridan foydalanishga o'rgatish;
- g) bola bilan ishlash psixologiyasini shakllantirish.

Ushbu yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash kutilgan samarani berishi shubhasizdir. Ayni paytda, har bir o'qituvchi o'z faoliyati davomida kasbiy qiyofasini yanada takomillashtirib borishini hisobga olib qo'yishimiz zarur.

Yondashuvlarga binoan bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari zamonaviy yondashuvlardan xabardor bo'lishi kerak. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari qiyofasida pedagogik, psixologik va estetik malakalik bo'rtib turishi kerak. Bu borada quyidagi pedagogik malakalarni egallash maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'z oldiga asosiy pedagogik vazifani qo'ya olishi, o'quv-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil eta olishi kerak;

- imkon qadar har bir o'quvchi bilan individual ishlash uslubini tashkil qilishi shart; – o'quv materiallari bilan ishlash ko'nikmasini egallash bo'lajak o'qituvchilar uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda barpo etilayotgan Uchinchi Renessans jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash muhimhisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini pedagogik qonuniyatlar va texnologiyalar bilan chuqur tanishtirish;

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;

- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;

- ta'lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o'qituvchilari va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o'rni va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag'batlantirish;

- pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida takomillashtirib borish;

- ilmiy-tadqiqot va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;

- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan xolda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron

resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;

– ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mavjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli Farmonida berilgan mazkur topshiriqlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik olimlarning fikricha, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari quyidagi funksional komponentlarni bilishi kerak:

- 1) o'quv materiallarini tayyorlash va taqdim etish;
- 2) o'quvchilarni bilim va tarbiya olishga qiziqтира olishi;
- 3) o'quvchilar shaxsida uchraydigan kamchiliklarni bartaraf eta olishi;
- 4) muntazam ravishda o'quvchilarni kuzatib borishi.

Mazkur yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Tajribali pedagog olimlardan A.K.Markovo yondashuviga ko'ra bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyati to'rt yo'nalishdan iborat:

- 1) Kasbiy psixologik va pedagogik bilimlarni egallash;
- 2) Kasbiy pedagogik malakani egallash;
- 3) Kasbiy psixologik ko'nikmalarni egallash;
- 4) Shaxsiy fazilatlar egasi bo'lish.

Bizning yondashuvimizga ko'ra, ushbu tavsiyalar nazariy va amaliy jihatdan asoslarga ega.

Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonini tashkil etishda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy, psixologik va estetik jihatdan tayyorlashga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi zamon rivojlanish jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda modellashtirish masalasiga ahamiyat berish dolzarb bo'lib turibdi. Unga ko'ra, oliy pedagogik jarayoni o'ziga xos model ko'rinishiga ega bo'lishi kerak. Chunki modellashtirish to'rt jihatga ega bo'ladi:

- model bu o'quv materiallarini tizimli taqdim etish;
- model muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etib borish;
- model ta'lim oluvchini hamisha obyekt sifatida bilish;
- model yangi ma'lumotlarni o'z vaqtida o'quv jarayoniga kiritib borish.

Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash ishlarini modellashtirib olish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentyabr) 5-bobida o'qituvchilarning huquqiy maqomi belgilangan. Mazkur huquqiy maqomga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatga quyidagi asoslarga binoan yo'naltirilishi kerak:

- chuqur kasbiy tayyorgarlik va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lish;
- ta'lim oluvchilar huquqlariga rioya qilish; – kafolatlangan ish sharoitidan foydalanish;
- o'quv dasturlarini tuzishda mualliflik dasturlarini ishlab chiqishni bilish;
- zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini erkin tanlash;
- innovatsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;
- sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish;
- ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ana shu huquqlar asosida faoliyatga yo'naltirilishi kerak. Ayni paytda, mazkur Qonunda o'qituvchilarning quyidagi majburiyatlari ham belgilab qo'yilgan:

- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilish;
- o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi;
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;
- voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi bilan birgalikda olib borishi;
- o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi; – tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi.

Mazkur majburiyatlar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirishning asoslari bo'lib xizmat qiladi. Bizning yondashuvimizga ko'ra bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy faoliyatga quyidagi mexanizmlar asosida yo'naltirilishi kerak:

- a) mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida;
- b) maxsus kurslar vositasida;
- v) mustaqil ta'lim vositasida;
- g) ustoz-shogird an'anasi vositasida.

Bu mexanizmlarga amal qilish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirish jarayonini aniq tashkil etish imkonini beradi.

Misol uchun, mustaqil ta'lim vositasini olaylik. Pandemiya kabi murakkab sharoitlar shuni ko'rsatdiki, oliy pedagogik ta'lim jarayoni hamisha va har qanday vaziyatda mustaqil ta'limga tayyor turishi kerak. Shunday qilib boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar pedagogik, psixologik va sotsiologik xarakterga egaligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur umumiy talablardan kelib chiqib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malaka talablarini belgilash mumkin. O'zbekistonning yangi taraqqiyotini barpo etish jarayonida boshlang'ich

ta'limni rivojlantirish va uning vositasida o'quvchilarni har tomonlama barkamol voyaga yetkazish vazifalari dolzarb bo'lib turibdi. Bunda asosiy vazifa boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga tushadi. Shu sababli keyingi vaqtlarda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malaka talablari va ularni shakllantirishning metodik asoslari to'g'risida yangicha vazifalar qo'yilmoqda.

Bugungi kunga qadar amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi 25-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo'yiladigan Davlat talablari"da boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malaka talablari belgilangan. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisi avvalo oliy ma'lumotli bo'lishi kerak. Bu o'rinda "oliy ma'lumotli bo'lish" tushunchasini boshlang'ich asoslari va boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha kasbiy-nazariy bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyaga ega bo'lishlikni tushunish lozim. Mazkur Davlat talablarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun malaka talablari quyidagicha belgilangan:

- 1) o'qitish (dars berish) mahorati;
- 2) tarbiyalash mahorati;
- 3) o'quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni belgilaydigan shaxsiy sifatlar;
- 4) boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati.

Bu o'rinda o'qitish (dars berish) mahorati bo'yicha quyidagi talablar belgilanganligini eslatib o'tish joiz:

- kasbiy layoqat va eruditsiya (his-tuyg'uga) ega bo'lish; – psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga va yangi ilmlar olishga o'rgatish mahoratiga ega bo'lish;
- o'quv adabiyotlari shakllari va turlarini bilish;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini egallash, Internet global tarmog'i bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish;
- malaka oshirish shakllarini bilish;

- ilmiy-pedagogik ijodiyot metodologiyasini bilish;
- pedagogik fanlarning asosiy yo‘nalishlarini bilish;
- predmetlar aro aloqalardan foydalanish mahoratiga ega bo‘lish;
- notiqlik san‘ati asoslarini bilish;
- bola huquqlari va ta‘limga oid hujjatlarni bilish. Mazkur talablar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining amaliy faoliyati davomida shakllanib boradi va ular davomli malaka oshirish vositasida takomillashtiriladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli Farmoni/ <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Sh. Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 24-aprelda PF-5712-son Farmoni (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019-y.
3. Qosimova K., Matchonov S. , G‘ulomova X., Yo‘ldasheva SH., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. -Toshkent, “Nosir”, 2009
4. G'ulomova, X., &Bakiyeva, H. (2020). O'QISH DARSLARIDA SHE'RIY ASARLAR MATNI USTIDA ISHLASH. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 582-589.